



O‘zbekistonda «Yashil iqtisodiyot»ni rivojlantirish asosida barqaror iqtisodiy o‘shishni ta’minlash yo‘llari va unga ta’sir etuvchi omillar

Axrorova Zarina Bahtiyorovna

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya: Maqolada yurtimizda “Yashil” iqtisodiyotga o’tish jarayonida amalga oshirilayotgan islohatlar va yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, organik mahsulot, yashil texnologiyalar kabi tushunchalarning izohi berilgan.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, organik mahsulot, yashil texnologiyalar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, respublikada “yashil” infratuzilmalar uchun xususiy kapital jalb etilishini kengaytirish, “yashil” iqtisodiyot sohalarida moliyaviy vositalarni rivojlantirishda “yashil” turdagi faoliyatni tasniflash mezonlarini joriy etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi. Qishloq xo‘jaligi hali ham dunyo aholisining aksariyati uchun eng muhim daromad manbai hisoblanadi. Jamiyat uchun zarur bo‘lgan tovarlar va xizmatlar, oziq-ovqatning ko‘p qismi shu sohada ishlab chiqariladi. Qishloq xo‘jaligi yer maydonining taxminan 40 foizidan foydalanishi bilan birga ko‘plab zararlarni ham keltirib chiqaradi. Ularning qatoriga issiqxona gazlari emissiyasi biosferadagi azot va suvning ifloslanishiga, yerga ishlov davrida kimyoviy moddalardan foydalanish orqali



yerning sho'rlashishiga uning hosildorligini kamayishiga, bu esa hozirda jadal o'sib borayotgan dunyo aholisini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishning qiyinlashishi bilan bir qatorda ularning ozuqaviy holatini yomonlashishi inson salomatligiga katta xavf tug'dirmoqda. Bunday muammolarning yechimi sifatida dunyo hamjamiyatining yetakchi tashkilotlari tomonidan turli tadqiqotlar olib borilmoqda va uning amaliy yechimi sifatida "Yashil" iqtisodiyotga o'tish zarurligi ta'kidlanmoqda. Yurtboshimiz davlatimizni iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik rivojlanishi yo'lida amalga oshirayotgan islohatlari qatoriga 2019-2030 yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi qarorini olishimiz mumkin. Qarorda Respublikamizning yashil iqtisodiyotga o'tishi uchun oldimizga qo'yilgan vazifalar va ularni amalga oshirish yo'llari ko'rsatilgan bo'lib, qishloq xo'jaligi sohasida ham sezilarli o'zgarishlarni joriy etish taklif etilgan bo'lib: ekinlarni diversifikatsiya qilish; tanazzulga uchragan yaylovlarni tiklash;

Sho'rlanish, qurg'oqchilik va boshqa xatarlarga bardoshli yuqori mahsuldor chorva mollari, o'simlik turlarini etishtirish, eng asosiysi hozirda dolzarb mavzulardan bo'lgan organik qishloq xo'jaligi uslublarini joriy etish to'g'risida yo'nalishlar belgilab berilgan. Organik mahsulotlar qanday bo'ladi degan savolga quyidagicha javob berishimiz mumkin- "Organik" atamasi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish va qayta ishlash usullarini anglatadi. Organik ekinlar sintetik gerbitsidlar, pestitsidlar va o'g'itlar yoki bioinjeneriyalangan genlardan (GMO) foydalanmasdan yetishtirilishi kerak. Go'sht, tuxum va sut mahsulotlari uchun yetishtiriladigan organik chorva mollari ularning tabiiy xulq-atvoriga (masalan, yaylovda o'tlash qobiliyatiga) mos keladigan sharoitda boqilishi va organik ozuqa bilan oziqlanishi kerak. Ularga antibiotiklar, o'sish gormonlari yoki hayvonlarning qo'shimcha mahsulotlari berilmasligi kerak. Iqtisodiyot ilmi ummonida ko'p uchrayotgan iqtisodiy terminlardan: Yashil iqtisodiyot, yashil o'sish, barqaror rivojlanish, barqaror taraqqiyot kabi iboralarning asl mohiyatini tushunib olishimiz darkor. Yashil



iqtisodiyot iborasiga juda ko'p adabiyotlarda turlicha ta'riflar berilgan bo'lib ulardan bir qanchasini ko'rib chiqamiz. Yashil iqtisod oddiy maqsad emas, aksincha, u hamkorlikda farovon hayotga eltuvchi vositasidir. Bunday iqtisodiyot odamlar va jamoalar gullab-yashnashiga imkoniyat yaratiladi. Uning vazifasi tovar va xizmatlarni yetkazib berishdan tashqari ijtimoiy va ekologik muhitni saqlash va yaxshilashni o'z ichiga oladi. Shu bilan birgalikda bozorlardagi barqarorligini, bandlik sohasidagi xavfsizlik, ta'minot zanjirlarida barqarorlik, halollik va iqtisodiy adolat hozirda va kelajakda farovon hayot kechirish shartlarini o'z ichiga oladi. "Yashil" iqtisodiyot kontsepsiyasi atrof-muhitga ifloslantiruvchi moddalar chiqarilishini kamaytirish, iqlim o'zgarishini kuzatish, shuningdek, resurs va energiyani tejash nuqtai nazaridan yangi texnologiyalarni ishlab chiqishga yordam beruvchi texnologiyalar va uskunalarni ishlab chiqish va joriy etishni nazarda tutadi. "Yashil iqtisodiyot" asosida barqaror taraqqiyotga o'tish va sifat jihatidan yangi raqobatbardosh muhitni shakllantirishga erishish mumkin. "Yashil" iqtisodiyot tushunchasi bilan barqaror rivojlanish tushunchasi chambarchas bog'liqdir. Barqaror rivojlanish – bu shunday jamiyatning rivojlanishiki, unda inson hayoti sharoitlari yaxshilanadi, atrof-muhitga ta'siri biosferaning xo'jalik chegaralari imkoniyatlari doirasida qoladi, shuning uchun insoniyatning tabiiy asoslari funksiyalari buzilmaydi. Barqaror rivojlanish bilan kelajak avlodlarga zarar etkazmasdan ehtiyojlar qondiriladi. Barqaror rivojlanish kontsepsiyasi kapitalning o'sishi va ekologik sharoitning yaxshilanishi bilan birga insoniyatning uzoq muddatli taraqqiyotining zaruriy sharti sifatida qoraladi. Barqaror rivojlanish kontsepsiyasi mintaqani atrof-muhitning qaytarilmas degradatsiyasi holatiga o'tish imkoniyatini oldini oladigan tashqi yordam bilan o'z-o'zini tashkil etish orqali rivojlantirishni nazarda tutadi. Butun insoniyat uchun bu kontsepsiya moliyaviy resurslarni boy hududlardan kambag'al hududlarga qisman, maqsadli, qo'llab-quvvatlovchi tarzda o'tkazishni, atrof-muhitga oid bilimlar va ma'lumotlarning keng almashinuvini nazarda tutadi. Yashil iqtisodiyotga o'tishda har bir mamlakat o'zining ichki imkoniyatlaridan va muammolaridan kelib chiqqan holda turli yo'llanishlarda ish olib borishi mumkin. 2020-yil Yangi O'zbekiston strategiyasida



mamlakatimiz tarixida birinchi bor kambag'allik tushunchasi mamlakat barqaror rivojlanishiga ta'sir etuvchi jiddiy muammo sifatida ko'rib chiqildi va aynan shu muammolar ham yashil iqtisodiyotga o'tishimiz zarurligini yana bir bora isbotlab berdi. Yuqorida keltirib o'tilgan muammolarni bartaraf etish uchun "aqlli" qishloq xo'jaligi tamoyillarini joriy etish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suvdan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirish, tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy etish va ularda yetishtiriladigan ekinlar hosildorligini ko'paytirish ko'zda Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida tutilgan. organik mahsulotlar yetishtirishni rag'batlantirish, asosiy turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'rtacha hosildorligini 20-25 foizgacha oshirishga erishish oldimizga maqsad qilib qo'yildi. Yashil" iqtisodiyot nafaqat tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitning ifloslanishini kamaytirishga, balki aholi daromadlari va bandligini oshirishga ham asoslangan, bu milliy qonun hujjatlariga yangi ishlab chiqarish va tabiatni muhofaza qilish standartlari joriy etilishini rag'batlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mo'minov A. «Iqtisodiy o'sish va uning omillari nimalardan iborat» //O'zbekiston ovozi. 2016-yil 20-may.
2. Barqaror iqtisodiy o'sish va uni ta'minlash bosqichlarining tahlili, "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, №6, noyabr-dekabr, 2014.
3. "Yashil iqtisodiyot" asosida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning nazariy va amaliy jihatlar, "XXI asr: fan va ta'lim" ilmiy elektron jurnali. №2, 2017.